

# DEVELOPING THE SPIRIT OF MILITARY SELF-SACRIFICE IN YOUNG PEOPLE

**Azizjon Badalov,**  
A Second-Year Student Of  
Chirchik State Pedagogical Institute, Tashkent Region,  
Majoring In "Pre-Service Military Education".

## **Annotation:**

This article is the result of the work carried out in secondary schools to develop the spirit of military self-sacrifice, in which the school teacher has a thorough knowledge of the scientific basis for the development of military self-sacrifice, as well as its complexity. availability is highlighted.

## **Keywords:**

Military education, army, skill, dedication, process, educational potential, emotion.

Yoshlarni harbiy fidokorlik ruhida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari va asosiy prinsiplari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, hozirgi murakkab globallashuv davrida, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib borayotgan sharoitda yoshlarni harbiy fidokorlik ruhida tarbiyalash bilan bog'liq dolzarb vazifalar va ularni hal etish yo'llari, davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari, oila, mahalla, ta'limgarbiya institutlarining bu boradagi roli va ahamiyatini, o'zaro hamkorligini milliy va xalqaro huquqiy normalarni hisobga olgan holda belgilab beradi.

Ona-Vatanimizni ko'z qorachig'idek asrash, uning shuhratini dunyoga tarannum etish bilan bog'liq eng muhim tushunchalar, hayotiy va professional ko'nikmalarni ilm-ma'rifikat asosida yoshlarning qalbi va ongiga ilk bolalik davridan boshlab singdirib borish orqali O'zbekistonning haqiqiy vatanparvar fuqarolarini tarbiyalash hozirgi zamonning asosiy vazifalarini tashkil etadi.

Yoshlarni harbiy fidokorlik ruhida tarbiyalash — bu millati, tili va kasbidan qat'i nazar, yoshlarda Vatanga sadoqat tuyg'usini shakllantirish, ularni o'z fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini bajarishga, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashga yo'naltirilgan davlat organlari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlarining ko'p bosqichli, tizimli, maqsadli va muvofiqlashtirilgan faoliyati hisoblanadi.

Yoshlarni harbiy fidokorlik ruhida tarbiyalashning maqsadi yoshlarda jamiyatning turli tarmoqlari, ayniqsa, harbiy soha bilan aloqador bo'lgan davlat xizmati turlarida faollik ko'rsatish, tinch va harbiy sharoitda Konstitutsiya va harbiy burchga sadoqatli bo'lish, ularni o'z yurti va xalqi taqdiri uchun yuksak mas'uliyat va javobgarlik kabi muhim xususiyatlarini shakllantirishdan iborat bo'ladi.

O'zbekiston manfaatlarini nafaqat harbiy sohada, balki hayotning barcha jabhalarida himoya qilishga tayyor turish, yurt uchun fidoyi bo'lish — bu bugungi kun talabi ekanini hayotiy misollar va ta'sirchan vositalar orqali yoshlar ongiga singdirib borish har bir pedagog hodimlarning zimmasida turuvchi vazifa hisoblanadi.

Quyidagilar yoshlarni harbiy fidokorlik ruhida tarbiyalashning asosiy prinsiplari hisoblanadi:

- ilmiylik;
- tarixiylik;
- aniqlik va tezkorlik;
- muntazamlilik;
- faollik;
- ta'limgarbiya ishlarining uyg'unligi;
- tarbiya jarayonining izchilligi;
- harbiy fidokorlik tarbiyasida erishilgan ijobjiy natija va yutuqlarga tayanish.

Yoshlarni harbiy fidokorlik ruhida tarbiyalash turli shakllarda, jumladan, ilmiy-amaliy anjumanlar, savol-javob kechalari, kitobxonlik, o'yinlar, mashhur kishilar bilan uchrashuvlar tarzida va boshqa shakllarda tashkil etiladi. Ular ma'naviy-ma'rifiy ishlarning rang-barangligini ta'minlaydi, pirovard natijada jamiyatda sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Bunda quyidagi shakllar ustuvor ahamiyatga ega bo'ladi:

- ma'ruza o'qish, savol-javob kechalari, yakka va jamoaviy suhbatlar;
- boy hayotiy tajribaga ega bo'lgan harbiy xizmatchi va faxriylar, ilm-fan, madaniyat va sport sohalarida, turli musobaqa va tanlovlarda g'olib bo'lishgan shaxslar bilan uchrashuvlar;
- ilmiy-nazariy va amaliy konferensiyalar, seminar-treninglar, muayyan mavzuga bag'ishlangan kechalar, bahs-munozaralar, viktorinalar, davra suhbatlari;
- to'plangan ilg'or tajribalarni o'rganish va ommalashtirish;
- jamoatchilik fikri va harbiy jamoalardagi ma'naviy-ruhiy muhitni o'rganish;
- teleko'rsatuv va radioeshittirishlar, film va multfilmlar, badiiy va musiqiy asarlar, askar qo'shiqlari, ommaviy axborot vositalari, veb-saytlar va elektron o'yinlar va boshqa texnik vositalardan foydalanish;
- urush va mehnat faxriylari, jangovar harakatlar ishtirokchilari, davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari bilan uchrashuvlar tashkil etish;
- harbiy xizmatga chaqiriluvchilar kuni, mardlik saboqlarini o'tkazish va ekskursiyalar uyushtirish.

Yoshlarni harbiy fidokorlik ruhida tarbiyalashning samaradorligi ushbu jarayonning barkamol avlod tarbiyasiga, yoshlarning vatanparvarlik darajasiga qay darajada ijobiy ta'sir etgani bilan belgilanadi. Harbiy fidokorlik tarbiyasidagi samaradorlik darajasini aniqlashning muhim sharti yoshlarda vatanparvarlik, harbiy burch, jangovar an'analarga sodiqlik kabi xislatlarning real holatda yanada rivojlanishi va takomillashuviga ijobiy ta'sir etadigan omillarni muntazam ravishda hisobga olib, tahlil etib borishdan iborat.

Harbiy fidokorlik ruhida tarbiyalashning muhim mezonlaridan biri o'sib kelayotgan yosh avlod oldiga jamiyat tomonidan qo'yilgan talablar bu borada olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarning ma'nomazmuni, shakl va usullari bilan qay darajada mutanosib ekani bilan belgilanadi.

## Foydalilanigan adabiyotlar:

1. R.A.Mavlonova, O.Torayev, K.M.Xoliqberdiyev. Pedagogika. Darslik T.:O'qiyuvchi 2008-yil
2. R.A.Mavlonova, N.H.Vohidova, H.H.Rahmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik T.:Fan va texnologiyalar. 2010-yil
3. K.Xoshimov, S.Ochilov O'zbek Pedagogik antologiyasi, O'quv qo'llanma. T.:O'qituvchi 2010-yil
4. R.A.Mavlonova, N.H.Vohidova,Ijtimoiy pedagogika. O'quv qo'llanma. T.:Noshir 2009-yil
5. Sh.M.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javongarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil yakunlari va 2017-yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqi. Xalq so'zi gazetasi, 2017-yil 16-yanvar, №11
6. O'zbekiston respublikasini yanada rivojlanirish bo'yicha harakatlar strategiyasi.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonunhujatlari to'plami, 2017-yil, 6-son, 70-modda.

## References:

1. R.A.Mavlonova, O, Torayev, K.M.Kholiqberdiyev. Pedagogy. Textbook T .: Student 2008
2. R.A.Mavlonova, N.H.Vohidova, H.H.Rahmonqulova. Theory and history of pedagogy. Textbook T .: Science and technology. 2010
3. K.Khoshimov, S.Ochilov Uzbek Pedagogical Anthology, Textbook. T .: Teacher 2010
4. R.A.Mavlonova, N.H.Vakhidova, Social pedagogy. Textbook. T .: Publisher 2009
5. Sh.M.Mirziyoyev. Critical analysis, strict discipline and personal responsibility should be the daily rule of every leader, the speech of the President of the Republic of Uzbekistan at the

meeting of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan on the results of 2016 and prospects for 2017. People's Word Newspaper, January 16, 2017, №11

6. Action strategy for further development of the Republic of Uzbekistan.
7. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan. Collection of Legislation of the Republic of Uzbekistan, 2017, No. 6, Article 70.